

**Захириддин Мухаммад Бобур номидаги
Андижон Давлат Университети
Табиатшунослик ва география факултети
география йуналиши**

Жаҳон географияси

реферати

Жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари

Ўқитувчи: Мамажонов М

Тайёрлади: 2 курс талабаси Атажонов Ш

« Андижон »

Rossiya

Rossiya federatsiyasi maydoni bo'yicha eng katta davlatdir. Uning maydoni 17mln. Kv. Km ni tashkil qiladi.

Rossiya Yevropa va Osiyo qit'alarida joylashgan. G'arbda Norvegiya, Finlandiya, Estoniya, Litva, Latviya, Belarus, Ukraina davlatlari bilan chegaralanadi.

Janubda Gruziya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Mog'uliston, Xitoy va Koreya davlatlari bilan chegaradosh. Uning shimoliy qismini Shimoliy Muz okeani dengizlaridan Oq, Barents, Karsk, Laptevlar, Sharqiy Sibir va Chukotka dengizlari yuvib turadi. Sharqiy qismini esa Tinch okeanining Bering, Oxota va Yapon dengizlari yuvib turadi.

Rossiya ko'p millatli davlat. Aholising asosiy qismini ruslar tashkil etadi.

Rossiyaning katta qismini sharqiy Yevropa va g'arbiy Sibir tekisliklari egallab yotadi. Mazkur ikki buyuk tekislikni shimoldan janubga cho'zilgan Ural tog'lari ajratib turadi. G'arbiy Sibir tekisligidan sharqda Yenisey va Lena daryolarining oralig'ida O'rta Sibir yassi tog'ligi joylashgan.

Yirik tog' tizmalari Sibirning janubida shimoli sharqida va Uzoq shaqda joylashgan. Ular Oltoy, Ural, Sayan, Stanovoy, Aldan, Sixotalin, Verxoyansx va boshqa tog'lardir. Yirik daryolar Volga, Ob, Yenisey, Lena, Amur va boshqalar. Rossiyada dunyodai eng chuqur Baykal ko'li joylashgan va maydoni bo'yicha eng katta ko'l – Kaspiy dengizining shimoliy qismi joylashgan.

Rossiyada tabiiy resurslarning hammasi mavjud. Rossiyaada ko'mirning, neft va gazning, qora va rangli metallarning yirik konlari mavjud. Rossiyaning o'rmon resurslari ulkandir. Dunyodagi eng hosildor qora tuproqlar ham Rossiyada katta maydonni tashkil qiladi.

Rossiyada yoqilg'i energetika, metallurgiya, mashinasozlik, o'rmon, to'qimachilik sanoati yaxshi rivojlangan.

Rossiya neft qazib olishda jahonda birinchi o'rinda turadi. Rossiya mashinasozlik korxonalarida teplovozlar, kemalar, samalyotlar, ekskavatorlar, turbinalar, avtomobillar, metro poyezdlar va vagonlar ishlab chiqariladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlaridan zig'ir, kartoshka, bug'doy yetishtiriladi. Kartoshka yetishtirish bo'yicha Rossiya jahonda birinchi o'rinda turadi. Chorvachilikda yirik shoxli qoramol, cho'chqachilik, qo'ychilik asosiy o'rin tutadi.

Poytaxti – Moskva shaxri.

Xitoy.

Xitoy aholisining soni bo'yicha dunyodagi eng katta mamlakat. Xitoy Markaziy va Sharqiy Osiyoni katta qismini egallab yotadi.

Shimolda Xitoy Rossiya va Mo'g'uliston, Sharqda Qozog'iston, Qirg'iziston, Afg'oniston, Janubda Hindiston, Nepal, Butan, Myanma, Laos, Vetnam bilan chegaralanadi. Sharqda Xitoy, Sariq, Janubiy Xitoy dengizlari bilan chegaralanadi.

Xitoy xalq Respublikasi 1949 – yilda tashkil topgan. Aholisining asosiy qismini xitoylar tashkil qiladi, ulardan tashqari 50dan ortiq xalqlar yashaydi. Xitoyning g'arbiy qismida uyg'urlar ko'pchilikni tashkil etadi. Uyg'uqlar bilan birga qozoqlar, qirg'izlar ham yashaydi.

Xitoy asosan tog'li o'lka. Uning g'arbiy qismida Tyanshan, Kunplun, Pomir tog'lari oralig'ida Taklamakon cho'li, shimolida Gobi cho'li, sharqiy qismida esa Buyuk Xitoy tekisligi joylashgan. Eng yirik daryolari Xuanxe va Yanszi. Mazkur daryolar vodiylarida mamlakat aholisining asosiy qismi yashaydi.

Xitoyda ham Rossiya kabi tabiiy resurslarning hamma turi bor. Xitoyda neft, ko'mir, metallarning yirik konlari mavjud. Xitoy ko'mir qazib chiqarishda jahonda birinchi o'rinda turadi. Sanoatning tog' – kon, metallurgiya va mashinasozlik tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari kimyo, to'qimachilik va oziq – ovqat sanoati ham yaxshi rivojlangan. Ip – gazlama ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy jahonda birinchi o'rinda turadi.

Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i dehqonchilik hisoblanadi. Tekisliklarda sholi, bug'doy, makkajo'xori, paxta, tariq yetishtiriladi. Sholichilik ham Xitoyda yaxshi rivojlangan. Cho'chqachilik rivojlangan, cho'chqalar soni bo'yicha Xitoy jahonda birinchi o'rinda turadi. Yirik shoxli qoramollar qishloq xo'jaligida yer haydash va transport sifatida ishlatiladi.

Xitoy qadimdan qog'oz, kompas, porox va boshqa narsalar ixtiro qilingan.

Xitoyning poytaxti – Pekin shahri. Uning yoshi 3 ming yildan ortiqroq. U dunyodagi eng yirik shahrlardan biri hisoblanadi.

Yaponiya.

Yaponiya orollarda joylashgan osiyoning eng rivojlanagan davlati. Yaponiya asosan to'rtta yirik orolda (Xonsyu, Kyusyu, Sikoku, Xokkaydo) va mingdan ortiq mayda orollarda joylashgan. Mazkur orollar Tinch okeanining g'arbiy qirg'og'ida, kunchiqar tomonda joylashgan. Shununing uchun uni kunchiqar mamlakat deb atashadi. Yapon tilida u Nippon, o'zbek tilida esa Yaponiya

deb ataladi. Quyosh hatto Yaponiya davlatining bayrog'ida ham tasvirlangan.

Yapon orollari shimoldan janubga tomon katta masofaga cho'zilgan. Yapon orollarining deyarli oltidan besh qismi o'rmonlar bilan qoplangan baland va yirk tog'lardan iborat. Yaponiyaning eng balang nuqtasi bu so'nggan Fudziyama vulqonidir. Mazkur tog' yaponlar uchun muqaddas hisoblanadi. Yaponiyada bir qancha harakatdagi vulqonlar ham mavjud, bunday yerlarda shifobaxsh issiq buloqlar otilib chiqqan. Yaponiyada zilzila ham bo'lib turadi.

Yaponiya hamma tomondan okean suvlari bilan o'ralgani uchun iqlimi iliq, quyoshli va sernam. Eng shimolda joylashgan Hokkaydo orolida qor qalin yog'adi, qish sovuq bo'ladi. Yaponiyaning qolgan qismida subtropik va tropik iqlim hukmron. Janubiy qismida banan va palmalar o'sadi. Yaponiyada asosan yaponlar yashaydi. Shuning uchun u bir millatli davlat deb ataladi. Aholining deyarli katta qismi qirg'oqlarda yashaydi. Aholining beshdan to'rt qismi shaharlarda yashaydi. Shaharlar ham asosan qirgo'qlarda joylashgan. Shahar chekkalarida sholizorlarni ko'rish mumkin.

Shaharlarda va qishloq joylarda qadimgi budda ibodatxonalarini uchratish mumkin. Yaponlar milliy odatlarga qattiq amal qilishadi. Yaponlar honadonida mebellar kam, uyga esa bo'yra to'shalgan bo'ladi. Bo'yra ustida ular yallang'oyoq yurishadi, oyoq kiyimini o'zbeklarga o'xshab ostona oldiga yechib kirishadi.

Yaponiyaning yirik shaharlari uning janubiy qismida joylashgan. Poytaxti – Tokio shahri ham Xonsyu orollarining sharqiy qismida Tinch okeani qirg'og'ida joylashgan.

Yaponiyada foydali qazilma konlari kam, shuning uchun uning xo'jaligi tashqi savdoga kuchli bog'lanagan. Yaponiya boshqa davlatlarga mashinalar, apparatlar, televizorlar, radio priomliklar, stanoklar sotadi. Ularni ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Yaponiya AQSHdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi.

Ishlov beriladigan yerlar kam shuning uchun Yaponlar yerni e'zozlashadi. Asosiy qishloq xo'jalik ekini sholi hisoblanadi. Sabzavotchilik va bog'dorchilik ham yaxshi rivojlangan.

Yaponlar sitrus mevalari, shaftoli, olma, nok va turli xil sabzavot yetishtirishadi.

Qishloq xo'jaligida kichik kichik yerlarga ishlov berish uchun mitti traktorlardan foydalaniladi.

Yaponlarning poytaxti – Tokio shahri. Aholisi eng ko'p yirik shaharlardan biri. Tokio Yaponiyaning muhim sanoat va madaniy markazi hisoblanadi.

Turkiya.

Turkiya Osiyoning g'arbida joylashgan davlat. Poytaxti – Anqara shahri. G'arbda Bolgariya va Gretsiya, sharqda Armaniston, Gruziya, Eron, Janubda Iroq va Suriya bilan chegaranadi. Turkiyani uch tomonidan dengizlar o'rab turadi. Shimolda Qora dengiz, g'arbda Marmar va Egey, janubda O'rta dengiz suvlari uning qirg'oqlarini yuvib turadi.

Turkiya kichik Osiyo yarim orolida joylashgan. Uning katta qismini kichik Osiyo va Arman tog'ligi tashkil qiladi.

Eng baland nuqtasi katta Ararat tog'i hisoblanadi. Dengiz qirg'oqlarida tor tekisliklar joylashgan. Uning markaziy qismini Anatoliya yassi tog'ligi tashkil qiladi. Janubda Tavr tog'lari, shimolda Pont tog'lari joylashgan. Asosiy daryolari Frot va Dajla, Qizil Irmoq. Yirik ko'llari Van va Tuz. Ular sho'r ko'llardir.

Mamlakat tog'lardan iborat o'lganligi uchun iqlimi xilma xil: Qora dengiz sohillarida iqlim mo'tadil – illiq, namligi yuqori, yozi issiq, qishi salqin. Egey va O'rta dengiz sohillarida O'rta dengiz iqlimi mavjud, ya'ni yozi issi va quruq, qishi illiq va ser yomg'ir. Anatoliya qirlarida qish qattiq va nisbatan uzoq davom etadi, yoz quruq va issiq.

Turkiya o'simliklarining uchdan bir qismi faqat Turkiyada tarqalgan boshqa joylarda uchramaydi. Qora dengiz sohillari qalin o'rmonlar bilan qoplangan. Markaziy o'rmonlarda Arman dubi, sharqiy buk, grap, zarang o'sadi. O'rta dengiz sohillarida butalar ko'proq. Anatoliya qirlarida dasht va chal cho'l o'simliklari keng tarqalgan.

Turkiyada foydali qazilmalardan xrom, temir rudasi, mis, ko'mir konlari mavjud.

Aholisi 63 mln kishi. Aholining asosiy qismini turklar tashkil qiladi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari tog' – kon, metallurgiya, neft, to'qimachilik, oziq – ovqat, qurilish hisoblanadi. Turkiyada asosan quyidagi ekinlar ekiladi: tamaki, paxta, don, moyli o'simliklar, sitrus mevalari, qand lovlagi.

Chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Turkiya oziq – ovqat mahsulotlari bilan o'zini to'la ta'minlaydi.

Fransiya.

Fransiya G'arbiy Yevropadagi maydoni eng yirik davlat. Fransiya janubda Ispaniya va Andorra, sharqda Monako, Italiya, Shveytsariya, Germaniya, shimoliy sharqda Lyuksemburg va Belgiya bilan chegaralangan.

Shimoliy qismini La – Mansh bo'g'ozi suvlari, g'rabiylar qismini Biskay qo'ltig'i suvlari, janubiy qismini esa O'rta dengiz suvlari yuvib turadi.

Fransiyaning katta qismini tekislik tashkil etadi. Uning janubiy sharqiy qismi tog'lardan iborat. Eng baland tog' Alp tog'idir.

Fransiyada asosan mo'tadil iliq va dengiz iqlimi hukmron. G'arbiy qismi Atlantika okeani ta'sirida. O'rta dengiz sohillarida esa yoz issiq, quruq, qish esa iliq va sernam bo'ladi. Daryolar ko'p. Asosiy daryolari Sena, Rona, Garonna.

Fransiya taiati inson tomonidan kuchli darajada o'zgartirilgan. O'rmonlar ko'proq Alp tog'larida saqlanib qolgan. Alp va Pireney tog'larida, dengiz sohillarida atrof – muhitni muhofaza qilish uchun qo'riqxonalar va milliy bog'lar bunyod etilgan. Shimoliy dengiz va Biskay qo'ltig'i baliqqa boy.

Fransiya foydali qazilmalardan bixsit, temir rudasi ko'p. Neft va gaz ham qazib olinadi, ammo juda oz miqdorda.

Aholisi bir millatli, ya'ni fransuzlardan iborat. Bundan tashqari bir necha million chet ellik yashaydi. Ular asosan Italiya, Ispaniya, Portugaliya va Jazoir dan ish qidirib kelganlar hisoblanadi.

Fransiya sanoatining asosiy tarmoqlari – elektroenergetika, metallurgiya, mashinasozlik, kemasozlik, samolyotsozlik, parfumeriya, oziq – ozqat sanoati yaxshi rivojlangan.

Fransiya qoramollar soni bo'yicha Yevropada birinchi o'rinda turadi. Asosiy qishloq xo'jalik ekini bug'doy. Bug'doyzorlar maydoni asosan shimolda joylashgan, janubda esa makkajo'xori ko'p ekiladi. Bog'lar, uzumzorlar va olmozorlar ko'p. Janubda shaftoli, o'rik, zaytun yetishtiriladi.